



2018 yil yanvar-sentyabr oylarida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **3078,9 mlrd.so'mni**, o'sish **7,6 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **113,1 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **42,3 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **50,9 %**


2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 3078,9 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalashning 8,2 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 20,6 % ga va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning 48,8 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yil yanvar- sentyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o`shiga qo`shgan hissasi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,7 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 48,8 % ga oshganligini kuzatish mumkin.





Qayta ishlash sanoat

Qayta ishlash sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1869,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 60,7 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,2 % ga oshganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1096,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 35,6 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining o'sish sur'ati 8,2 % ga oshganligi kuzatildi.



Shuningdek 2017 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan mahsulotlar ishlab chiqarishning yuqori o'sishi quyidagi faoliyat turlarida kuzatilmoqda: suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 95,4 % ga, rezina va plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarish 37,6 % ga, hamda ichimliklar ishlab chiqarish sanoati 32,6 % ga oshganligi kuzatildi.


**Yanvar- sentyabr oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	2017 yil	2018 yil	2017 yil yanvar- sentyabriga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	6,1	7,2	117,6
Paxta tolasi, ming tonna	35,9	28,2	78,5
Aroq – mig litr 100 % spirt	825,8	825,8	100,0
Elektr energiyasi, mlrd kvv/s	11,3	11,5	101,8
Paxta urug'i, ming tonna	57,7	44,7	77,5
Kalava ip, tonna	3694,7	3314,1	89,7
Sellyuloza, ming kg 90%	1299,3	514,8	39,6
Un, ming tonna	26,9	26,3	97,8
Kunjara, ming tonna	24,7	29,5	119,4

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1302,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 13,1 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 42,3 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar- sentyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 41,4 % dan 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 43,4 % ga oshishi kuzatilmoqda.


Yanvar- sentyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri 1047,7 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 34,0 % ulushini), Sirdaryo tumani 638,4 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 20,0 % ulushini), Guliston shahri 467,4 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 15,2 % ulushini), Boyovut 206,4 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 6,7 % ulushini) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2018 yilning yanvar- sentyabr oyida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati




Shu bilan birga eng kam ulush Xovos tumani 77,5 mlrd so'm (2,5 %), Sardoba tumani 74,8 mlrd so'm (2,4 %) va Guliston tumani 56,5 mlrd so'm (1,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2018 yilning yanvar- sentyabr oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 3750,6 ming so'mni tashkil etib tuman va shaharlarning tabaqalanishi taxlil qilinganda, Shirin shahrida 56632,7 ming so'm, Guliston shahrida 5281,6 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2018 yilning yanvar- sentyabr oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi,




Tuman va shaharlar kesmida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'tan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti yuqoriligi quyidagi tumanlarda kuzatilgan, Mirzaobod tumanida 141,0%, Yangiyer shahrida 124,2 % hamda Guliston shahrida 122,1%. Shu bilan birga o'sish sura'ti kamayishi Guliston tumanida 75,8%, Boyovut tumanida 74,6% ni tashkil etgan.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1566,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan (jami sanoat mahsulotlarining 50,9 foizi) yoki 2017 yilning tegishli davriga nisbatan 110,2 foizni tashkil qilgan.

2018 yil yanvar-sentyabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Sirdaryo viloyati Statistika boshqarmasi
Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: U.To'rayev
Aloqa telefoni: (0371) 230-86-23